



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN  
(1879-1955)

2022  
YANVAR  
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
14-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-14**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-14**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН**

<b>1. Matyoqubova Zulayho Nematovna, Matnazarova Gulhayo Omongaldiyevna</b> TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING BOLALARDA ESTETIK VA BADIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI .....	7
<b>2. Masharipova Hilola Qalandorovna</b> TASVIRIY SAN'AT FANIDA O'QUVCHILARGA QALAM TASVIR YO'NALISHINI O'QITISH USULLARI VA METODLARI .....	8
<b>3. Nurmetova Shahnoza Quvondiq qizi</b> PEDAGOGIK RASMNI O'QITISH VAZIFALARI .....	10



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

### TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING BOLALARDA ESTETIK VA BADIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI

**Matyoqubova Zulayho Nematovna,**

Xorazm viloyati Shovot tumani

26-maktab Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Telefon +998915729966

**Matnazarova Gulhayo Omongaldiyevna**

Xorazm viloyati Shovot tumani 1-maktab

tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Telefon: +998999611873

**Annotatsiya:** Tasviriy san'at o'quvchilarning har jihatdan yetuk bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarning estetik va badiiy tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, badiiy did, estetika, estetik va badiiy didni o'stirish, estetik tarbiya, san'at

«Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlарimizning odob axloqi,yurish turishi,bir so'z bilan aytganda,dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli,yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz,qanday ulug' zotlarning avlodimiz,degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib,o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya,tarbiya va tarbiya hisobidan» SH.M.Mirziyoyev

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lган badiiy madaniyatga oid elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi.Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi.Bu ularda estetik did va badiiy qobiliyatlarini o'stiradi. Bog'chada tasviriy san'at mashg'ulotlarining bir qator vazifalari bor.Biz ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lamiz:

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdag'i va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy ijodiy qobiyyat va fantaziyanı rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari bilan tanishtirish rasm ishlash ,haykal yasash, badiiy qurish va yasash yuzasidan elemantlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamlash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2.Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari.Ular :borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasiniamalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash. Bog'chada tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshadi:

- Bolalarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarini idrok etishga o'rgatish;
- o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqeа narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. «Mana buyuklar «kanali.
2. Internet malumotlari.



## TASVIRIY SAN'AT FANIDA O'QUVCHILARGA QALAM TASVIR YO'NALISHINI O'QITISH USULLARI VA METODLARI

Masharipova Hilola Qalandorovna

Xorazm viloyati Xiva tumani

36-umumiy o'rta ta'lim maktabining

tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Tel: +998-99-577-37-31

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kunda tasviriy san'at va chizmachilik fanini o'qitishda ishlataladigan metod va usullar tahlil qilingan. Unda asosan qalamtasvir yo'naliishi obyekt sifatida olingan.

**Kalit so'zlar:** qalamtasvir, naqqoshlik, grafika, haykaltaroshlik.

Olimlarimizdan biri «Tasvirlash bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir», deb bejiz aytmagan. Tasviriy san'at o'qituvchisi qalam tasvirdan quyidagilarni bilish talab qilinadi:

- grafika san'ati haqida nazariy ma'lumotlar;
- qalam tasvirda ishlataladigan materiallar, ularni tayyorlash qoidalari va yoriqlari;
- naturadan qalam tasvirda rasm ishlashning asoslari;
- tasvir qurish qalam tasvirda perspektiv qisqarish qonuniyatlari borasidagi bilim va nazariy tushunchalar;
- qalam da bajarilayotgan tasvirning kompozitsiya yechimi;
- qalamtasvirdagi ishni nihoyasiga yetkazish tajribasi va malakasi;

— qalamtasvirda qalam bilan bajarilgan ishga shakl berish yollari va uslublari kabi bir qator maqsad va vazifalari mayjud. Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan talab va qonun-qoida asoslarni mukammal o'zlashtirganda tasviriy san'at o'qituvchilar oddiy geometrik shakklardan tortib, harakatdagi odam, hayvonlar hamda tabiatning turli ko'rinishlarigacha bolgan jarayonlarni qalam tasvirda bajara olishi kerak. Bundan tashqari kitob, gazeta, jurnal bezash, muqovalash va boshqa grafik ishlarni bajara olish malakalarini bilishlari lozim. «Qalam tasvir bu rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikning eng yuqori nuqtasi va barcha fanlarning ildizi va manbayidir». Ushbu so'zlar 500 yil oldin buyuk Mikelandjelo Buanorotti tomonidan aytilganiga qaramasdan, hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan va isbotini topmoqda. Qalamtasvir — tasviriy san'at asosi. Tasviriy san'atning barcha turlarining asosi qalamtasvir hisoblanadi. XVIII asrdan boshlab «qalamtasvir» chiziqlar yordamida obraz yaratish sifatida tasvirni belgilovchi atama hisoblanib, barcha san'at turlaridagi buyumning shakli, o'lchami, tuzilishi va xarakterini belgilab beruvchi muhim xususiyatlari bilan tanishtiradi. Qalam tasvir tasvirlashning xususiyatlari shartli ravishda bir necha turlarga bo'linadi. Qalam tasvirning tasvirlash vositalari ishlatalishi bo'yicha chiziqli va tusli bo'ladi. Chiziqli rasm qoida bo'yicha och, yengil va umumlashtirilgan bo'ladi. Chiziqlar orqali badiiy obraz yaratiladi, jadvallar, shartli chizmalar, sind taxtasiagi tasvirlar shular jumlasidandir. Tusli tasvirlar muhitdag'i buyumning hajmliligi, yorug'ligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarini to'liq ta'rifini beradi. Bunday rasmlar yorug'-soyali va tusli, deb ataladi. Ayrim buyumlar sharpasi va tashqi ko'rinishi orqali xarakterlidir. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi tasvirlashda ayrim holda tusli tasvirning oddiy turi tanlanadi, bu siluet deb nomlanadi, ya'ni bir xil tekis tus bilan qoplanib, tashqi ko'rinish chizig'i orqali bajariladigan tasvir. Qalamtasvir bajarish uslubiga ko'ra asl nusxa (original) va bosma turlarga bo'linadi. Asl nusxali rasm rassom tomonidan o'z qo'li bilan yaratilgan yagona namuna hisoblanadi. Bosma rasm esa qog'oz yuzasiga qolipdan tushirilgan rasmdir va u estamp, deb yuritiladi. Estampning bir necha ko'rinishi mavjud: gravyura, linogravyura, litografiya.

Ijodiy qalamtasvir — bu rassomning fikri, hissiyoti va dunyoqarashini obrazli tarzda ifodalovchi tasviriy san'at asari. O'quv va ijodiy ishlarda qoralama, etud, eskiz iboralari keng qo'llaniladi. Qoralama deb qisqa vaqtli tasvirga aytiladi. Buyum tasviri yoki uning qismlarining mukammal o'rganilishi etud orqali amalga oshiriladi. Etndlarda va qoralamalarda chuqur o'rganilib chizilgan haqiqiy materiallar ijodiy rasm yoki asarlar yaratilish mobaynida foydalanishga moljallangan dastlabki chizgilar eskiz, deb yuritiladi. Perspektiva qonuniyatlari kundalik hayotimizda ishlatalayotgan va tevarak-atrofim izni qurshab turgan narsalarga nazar tashlaydigan bolsak, ya'ni temiryo'l yoki ko'chaning o'rtasida turib, diqqat bilan qaralsa, ko'cha chetlari, temir yo'l



izlari uzoqlashgan sari o‘zaro yaqinlasha borib, go‘yo bir nuqtada uchrashayotgandek ko‘rinadi. Daraxtlarning yashil bo‘lib ko‘rinayotgan ranglari uzoqlashgan sari ko‘k ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Tabiatdagi narsalarning ana shunday ko‘rinishini qog‘oz yoki biror bir buyum ustida tasvirlash bilan shug‘ullanadigan fan perspektivasi deyiladi. Perspektiva fransuzcha so‘z bo‘lib (la perspective), «uzoqqa qarash», yunonchada esa «coyna orqali to‘g‘ri va aniq ko‘ryapman», ma’nosini bildiradi. Perspektiva qonunlari juda ham ko‘p, lekin biz ularning eng asosiyalaridan foydalanamiz. Rassom rasm chizganda perspektivaning kuzatish, chiziqli va fazoviy turlaridan keng foydalanadi. Kuzatish perspektivasi bu kenglikni bevosa kuzatish, chamlash asosida yuritiladi. Chiziqli perspektivaning ma’nosini geometrik qurilish uslubiga asoslanishiga tayanadi. Fazoviy perspektiva narsalarni kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo muhitini ta’sirida tus va ranglar o‘zgarishini o‘rganadi.

Maktab o‘quvchilarida qalamtasvir orqali chizish ularda dastlabki tasviriy ko‘nikmani xosil qilishga yordam beradi. Qalamtasvir sirlarini yaxshi bilgan o‘quvchida keyinchalik grafikaning boshqa sohalarini bilishda ijobjiy motivatsiya beradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1984
2. Boymetov B. Qalamtasvir o‘qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. Toshkent, 1995
3. Boymetov B., Tolipov M. Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1997



## PEDAGOGIK RASMNI O'QITISH VAZIFALARI

Nurmetova Shahnoza Quvondiq qizi

Xorazm viloyati Xonqa tumani

33-sون umumta'lim məktəbinin

Tasviriy san'at va chizmachılık fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik rasmni o'qitish vazifalari, doska bilan ishlash va o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik rasm, doskada rasm chizish, chiziqli, shtrixli, rangli, tusli.

Pedagogik rasm- bu mustaqil ahamiyatga ega bo'limgan holda pedagogning o'y- fikrlarini tushuntirish so'zi bilan bir qatorda grafik holda ifodalash vositasidir. Bu yerda o'quv materialini tushuntirish bosh o'rinni egallaydi, pedagogik rasm esa uni to'ldiruvchidir. Shuning uchun pedagog rasm chizilayotgan qog'ozda yoki doskada bajarilishi mumkin. Bu yerda eng asosiy narsa uning uslubiy yo'naltirilganligi bosh o'rinni egallaydi. Pedagogik rasm o'rganuvchining chizayotgan ishi chetiga o'qituvchi tomonidan tez, ishonarli tarzda hamda uning tushuntirish so'zi bilan to'ldirilgan holda bajarilishi mavzuni aniq, to'liq tushunib olishga imkon yaratadi.

O'qituvchi o'quvchining o'rniga o'tirib ishni bajarish ketma – ketligini, uni konstruktiv qurilishini, soya – yorug'liklarini shtrixlar asosida ko'rsatishi o'rganuvchining ijodiy rivojlanishini nafaqat rivojlantiradi, balki, aksincha to'sib ham qo'yadi. Uni o'z kuchiga ishonmaslik holatini keltirib chiqaradi. Bundan kelib chiqadiki pedagogik jarayonda o'qituvchining so'zi eng asosiy o'rinda bo'lib rasm esa to'ldiruvchi vosita hisoblanib o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi.

Sinf doskasida rasm chizish bo'lajak rassom – pedagoglar uchun muhim ahamiyatga egadir. Doskada rasm chizish ko'rgazmalilik prinsipining muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yangi mavzuni og'zaki tushuntirish bilan bir qatorda qisqa muddat ichida chizilgan tasvir o'quvchilarining idrok qilish jarayonini tezlashtiradi. Chizuvchi doskada shakllarning tuzilish qonuniyatlarini, naturani chizish ketma – ketligini chizib ko'rsatishi zarurdir. Biroq doskada tez, malakali rasm chizish o'qituvchidan bir qator maxsus mashqlarni bajarishni bu sohada yetarli ko'nikma va malakaga ega bo'lismi talab etadi. Bu uchun eng avvalo qalamtasvir darslarida olgan bilimlarini amalda namoyish etish zaruriyati tug'iladi. Ma'lumki qalamtasvir darslarida chiziladigan barcha naturalar ma'lum ketma – ketlik asosida tasvirni qurishni talab qiladi. Sinf doskasida rasm chizish ham xuddi shunday ma'lum ketma – ketlikka rioya qilishni talab etadi. Tasvirni qurish usullarini yaxshi bilish chizuvchining doskada rasmni ishonchli, tez va aniq chiqishi imkonini beradi. Xotira va tasavvur asosida rasm chizish ko'nikma va malakalarini egallah bu o'rinda muhim ahamiyatga egadir.

O'z mohiyatiga ko'ra doskada rasm chizish turlari quyidagilardir: chiziqli rasm, shtrixli rasm, rangli rasm, tusli rasm. Chiziqli rasmida tasvir bir xil qalinlik soya – yorug'liksiz ko'rsatiladi. Shtrixli rasm chizilayotgan chiziqli rasm soya – yorug'liklar vositasida hajm berishga qaratilgan ya'ni asosiy soya – yorug'liklar ko'rsatiladi. Rangli rasmida chiziqli rasm rangli bo'rlar yordamida asosiy rang holatlari ko'rsatiladi. Tusli rasmida esa tasvirning yorug' joylari qo'l, ho'llangan latta yordamida yorug' joylari olinadi.

Doskada rasm chizishning muhim bir jihatasi tasvirda chiziqlarning turli yo'g'onlikda bo'lishi, shtrix, tus nuqtalardan foydalanishdir. Pedagogik rasm chizish nafaqat sinf doskasida, balki, qog'ozda sous, pastel, ko'mir, akvarel, tush kabi materiallarda ham chizib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san'at o'qituvchisiga dars paytida sinf doskasida bo'r bilan maishiy buyumlar, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va odam rasmini xotira bo'yicha bajarishga to'g'ri keladi. U chizgan rasmlar ixcham, ifodali va savodli bo'lishi kerakki, o'quvchilar u yoki bu predmet tasvirini timsoliy qabul qila olsin. Shu bois har bir o'quvchi bilim olish davrida sinf doskasida pedagogik rasm chizish texnikasini egallab olishi zarur. Bu jarayonda qisqa muddatli, shtrixli, ancha yirik o'lchamli turli predmetlarning xomaki rasmlarini chizish tavsiya etiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.R. Qobilov Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. 2. S. Abdurasilov, B.Boymetov, N. Tolipov Tasviriy san'at.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ**

**(14-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

**Эълон қилиш муддати: 31.01.2022**

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000